

XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARING KREATIVLIK QOBILYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda kreativlik takomillashtirish to‘g‘risida fikr mulohazalar bayon etilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari va hayotga tatbiq eta olishlarida ulardagι kreativ fikrlash motivatsiyalarining o‘rnini va ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, kreativlik, ijodiy qobiliyat, texnologiya, ijod, takomillashtirish, motivatsiya, globallashuv, ta’lim, o‘quvchi, yangilik, ta’lim, muammoli ta’lim, evristika.

В данной статье представлены идеи по совершенствованию творческих способностей в начальных классах. Объяснена роль и значение мотивации творческого мышления у учащихся начальной школы в приобретении необходимых знаний, навыков и умений и возможности их применения в жизни.

Ключевые слова: начальный класс, креативность, творческая способность, технология, креативность, совершенствование, мотивация, глобализация, образование, ученик, инновации, образование, проблемное обучение, эвристика.

This article presents ideas on improving creativity in primary classes. The role and importance of motivation of creative thinking in elementary school students in acquiring the necessary knowledge, skills and abilities and being able to apply them to life has been explained.

Key words: Elementary class, creativity, creative ability, technology, creativity, improvement, motivation, globalization, education, student, innovation, education, problem-based learning, heuristics.

Kirish. Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko‘ra, o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishlari uchun elektron shakldagi ta’limni rivojlantirish, o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borishda o‘quvlar tashkil etish kabilalar belgilangan. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad mifik faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iborat. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta’limning qadr-qimmati, obro‘ va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmog‘i zarur. Xalqaro tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’lim tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotb borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘srimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz.

Asosiy qism. Kreativlik so‘zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan

qo‘llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta’riflagan. Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g‘oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an‘anaviy shakllaridan voz kecha olishiga bo‘lgan qobiliyatidir.

“Kreativlik” tushunchasi bu tushuncha so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’lum darajada qo‘llanmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va mohiyatini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni, yangi g‘oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o‘zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan‘anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo‘lishi muhim ahamiyatga. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqillagini rag‘batlantirish

94 va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo'lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarining teng munosabatlaridan tashkil topadi.

Pedagogikaga oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikr bildirilib, bilm, fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

Ijodning psixologik asoslari sifatida quyidagi elementlar qabul qilingan. Bular:

1. Qabul qilish.

2. Xohish va istak.

3. Tasavvur qilish.

4. O'z-o'zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda, bilimning asosini tashkil

qilishda asosiy o'rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish quyidagi elementlar bilan belgilanishi e'tirof etilgan. Bular:

1. Aqliy mehnat.

2. Intuitsiya.

3. Dunyoqarash.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllarini tatbiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'limda, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini takomillashtirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinni foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim barcha o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini namoyish etish va barcha ijodiy qobiliyatlarni istisnosiz namoyish etish imkoniyatini beradi. Buning uchun, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. O'tilgan har bir qiziqarli mashg'ulot o'quvchilar onggida yaxshiroq qolishi, shuningdek, dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga mustaqil ijodiy qobiliyatini o'stradi. Ijodkor o'quvchi o'ziga xos noyob tarzda fikr yuritadi. Uning fikri mustaqil, tiniq, birovnikiga o'xshamagan bo'lib, ko'pincha g'ayri tabiiy yechimlarni ham topa oladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

2. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).

3."PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam – "Axborot-tahlil markazi" AQ. Astana. 2016-126 bet.

4. <http://www.tdi.uz/uzTa'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi>

5. <http://markaz.tdi.uz/> – Ta'lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi.

6. Abdulloyevich K. A. Development of Creative Abilities of Primary School Students in the Process of Extracurricular Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 232-235.